



NUTQIY TEONIMLARNING LUG'AVIY MA'NO ASOSLARI

N.Sharafutdinova

*FarDU o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya. Maqolada so'zning nominal ma'nosi, shuningdek, uning ziddi bo'lgan uzual ma'nosi haqida gap boradi. Nominal ma'no voqelik bilan nomlovchi ma'no orqali bog'lanishi figural ma'noda anglashiladigan tushunchada ifodalanayotgan predmet, belgi va harakatlar bevosita aks etmaydi, balki nominal ma'no orqali yuzaga chiqadi. So'zlarni individual qo'llash tufayli vujudga keladigan ma'lum bir so'zlar toifasi tizimiga teonimik ma'no ifodalovchi so'zlar ham kiradi.

Kalit so'zlar: uzual ma'no, figural ma'no, teonimik ma'no, okkazional teonim, yataguvchi tushunchasi, mavzudoshlik guruhlari, mifonim.

Ma'lumki, so'zda tushuncha yashaydi va tushuncha orqali borliqda mavjud bo'lgan predmetlar, keng ma'nodagi belgilar, voqeliklar ifodalanadi. Bu so'zning nominal ma'nosi bo'lib, milliy tilda barqarorlashgan, shu tilda so'zlashuvchilar tomonidan bir xilda qo'llanadigan va tushuniladigan ma'nodir. Nominal ma'no ataydi. Demak, uning funksiyasi atash funksiyasidir. Buning ziddi bo'lgan ma'no figural ma'no bo'lib, u individual so'z qo'llashning mahsuli sanaladi. Ma'lumki, figural ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanmaydigan, narsa, belgi, harakatning nomiga aylanmagan ma'no. U voqelik bilan nomlovchi ma'no orqali bog'lanadi [6.121]. Figural ma'noda anglashiladigan tushunchada ifodalanayotgan predmet, belgi va harakatlar bevosita aks etmaydi, balki nominal ma'no orqali yuzaga chiqadi. So'zlarni individual qo'llash tufayli vujudga keladigan ma'lum bir so'zlar toifasi tizimiga teonimik ma'no ifodalovchi so'zlar ham kiradi. "Ularni o'rganish poetik leksika muammolarini tashkil etadi" [1.24]. Teonimlar milliy til va shu tilda so'zlashuvchilar uchun barqaror nomga aylanmagan teonimlar, ya'ni okkazional teonimlardir. Bu tur teonimlar Yaratguvchi "tushunchasini ifodalashdan tashqari, unga xos turli buyuk fazilat va xislatlarni ham ifodalaydi" [5.107].

Ta'kidlash joizki, har qanday so'zni xohlagan maqsadda individual qo'llash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Individual qo'llash uchun tilda barqarorlashgan asos ma'no bo'lishi shart, ana shu asos ma'no orqali nutqiy ma'no yuzaga chiqadi – figural ma'noning asosi nominal ma'nodir. Masalan, faol leksik qatlamga xos bo'lishiga qaramay, non va suv so'zlari figural teonimik ma'no asosi bo'la olmaydi. Bu so'zlarda teonimik ma'no potentsiali mavjud emas. So'zni individual qo'llash bilan teonimik ma'no ifodalash uchun leksik-semantik jihatdan mantiqiy bog'lanish bo'lishi shart. Bu haqda professor Sh.Iskandarova quyidagilarni yozadi: "ShNG (shaxs nomi guruhi – N.Sh.)ga manub bo'lgan lingvistik birliklar tahlilida umumiydan xususiyga yoki xususiydan umumiyga qarab yo'nalish mumkin bo'ladi. Birinchisi butunni bo'laklarga



parchalanishi, ikkinchisi bo'lakni butun tarkibiga birlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. ...Birinchi bo'linishda shaxs nomlarining denotativ ma'nosiga, ularning doimiy belgisiga amal qilinadi va "mavjudlik, afsonaviylik" belgisiga tayangan holda moddiy mavjud bo'lgan ShNG va afsonaviy ShNGga ajratiladi. ... Ikkinchi bo'linishda ShNGga mansub bo'lgan leksemalar ifodalangan predmetlarning tashqi va ichki belgilariga tayaniladi. Xususan, intellektual qobiliyatga ko'ra ... jins va yosh belgisi, fe'li va tashqi ko'rinishiga ko'ra ..." [2.105]. Til hodisasi sifatidagi leksemalarni ma'lum bir tematik guruhga birlashtirishda shu leksema semalari asosga olinadi [4.67]. "So'zlarning mavzudoshlik guruhlari, umum tomonidan qabul qilingan so'zlar bilan bir qatorda, mavzu tasviri uchun zarur bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi... so'zlarnig mavzu guruhlari nutqda, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashni ham qo'shib olgan holda, bir-biridan farqlanadi" [3.205]. Bu prinsiplar nutqiy hodisa sifatidagi figural teonimlarga ham tatbiq etilishi mumkin. Bunda, albatta, bir xillik emas, umumiylik kuzatiladi.

Ma'lumki, teonim leksemasida subyekt, ya'ni shaxs nomi ifodalanadi.

O'zbek tilida nutqiy teonim sifatida qo'llanuvchi so'zlar mavzudoshlik asosida quyidagicha guruhlanadi:

- o'rin-makon (fazo) tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- funksiya-vazifa tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- egalik tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- insonning botiniy olami va tashqi ko'rinishini ifodalovchi so'zlar;
- yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar;
- go'zallik tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- xarakter tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- mahorat-mohirlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar.

O'zbek tilida Yaratguvchi tushunchasini okkazional ifodalovchi so'zlar leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlanadi:

- o'rin-makon tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- funksiya-vazifa tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- egalik tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- insonning botiniy olami va tashqi ko'rinishini ifodalovchi so'zlar;
- yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar;
- go'zallik tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- xarakter tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- mahorat-mohirlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar;
- ramziy obraz va predmetlar nomlarini ifodalovchi so'zlar;
- o'simliklar nomlarini ifodalovchi so'zlar;
- mifonimlar.

Leksik-semantik jihatdan ma'lum bir ma'noni anglatuvchi so'zlar bir mavzu maydoniga tegishli yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Masalan, mifonimlar alohida holda o'ziga xos leksik-semantik maydonni tashkil etadi, ularning ayrimlari mavzudoshlik maydonida go'zallik ifodalovchi so'zlar maydoniga tushadi, alohida



mavzu maydonini tashkil etmaydi. Ramziy obraz sifatida *Layli* go'zallik ifodalovchi maydonga tushadi, ramziy predmet bo'lgan tojisar esa bu maydonga tushmaydi.

Okkazonal teonimlar, qaysi maydonda bo'lishidan qat'i nazar, albatta, shaxslashtiriladi, shu jihatdan ularning barchasi "personallik maydoni" [2.105]da birlashadi. U yor, yo'ldosh, ko'rinish va xarakterlari bilan bir-biridan farqlanuvchi shaxs – obraz. Har ikki guruhga kiruvchi teonimlar ko'chimga asoslangan nouzual teonimlardir. Ular yuqorida ko'rsatilgandek guruhlanganda, ba'zi jihatlari umumiy bo'lganligi tufayli bir xil nomlanadi. Masalan, o'rin-makon, ya'ni fazo tushunchasini, funksiya-vazifa tushunchasini, egalik tushunchasini, insonning botiniy va tashqi ko'rinishini, yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma'nosini, go'zallik tushunchasini, xarakter tushunchasini, mahorat-mohirlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar har ikki guruhda ham bir xil nomga egadirlar. Leksik-semantik maydonga kiruvchi ramziy obraz va predmetlar nomlarini ifodalovchi o'simliklar nomlarini ifodalovchi so'zlar hamda mifonimlar alohida mavzudoshlik maydonini tashkil etmaydi. Bular go'zallik tushunchasini ifodalovchi so'zlar guruhiga tushadi. Masalan, pari mifonim, lekin u go'zallik ma'nosini ifodalashi bilan ko'chma ma'noda kelib, Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi.

Bunday guruhlashda o'rin-makon tushunchasini ifodalovchi so'zlar ham Yaratguvchi tushunchasini ifodalashi mumkin. Chunki qadimgi turkiylar o'z tafakkurida Yaratguvchi tushunchasini yuksaklik bilan bog'laganlar. Ular tangri, ya'ni ko'k (osmon), ko'k tangri so'zlarini Yaratguvchi ma'nosida qo'llaganlar. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bu so'zlar turkiy tillarda keng qo'llana boshlagan. Mana shu nominal ma'no asosida keyinchalik arab, fors-tojik tillaridan o'zlashgan falak, osmon so'zlari ham poetik ma'no ifodalash uchun, individual qo'llash bilan, Yaratguvchi tushunchasini ifodalay boshlagan. Yana bir jihat shuki, bunda qadimgi turklar yashash tarzi, madaniyati va kosmogonik tasavvurlarining o'rni ham bor. Samoviy jismlarda homiy hayvonlar siluetlari, ya'ni chizgilarini ko'rish, shu asosida chorvachilik-dehqonchilik kalendarlarini belgilash kabilarda kosmogonik tasavvurlar yetakchi o'rin egallagan. O'z hayotlarini osmon jismlari bilan bog'lash ham qadimiy tasavvurlar bo'lib, ko'kda har bir insonning yulduzi bor deb bilganlar, yulduzning uchishi shu insonning uchishi – vafoti deb qaraganlar. Shu qarash va tasavvurlar asosida ko'k – osmon, samoviy jismlar nomlari yuksaklik o'rni bilan Yaratguvchi ma'nosini ifodalagan.

Din ulusi qatli uchun kufr eli hojat emas,

Ey falak, ish gar budur ul ofati islom etar.

Navoiy

Ko'ziyu zulfu og'zi furqatida

Falak oxir meni odam qildi.

Bobur

Hozirgi o'zbek tilida ham bu so'zlar yozma badiiy nutqda qo'llanishi bo'yicha o'zining teonimik faolligini yo'qotgan emas.



Ayt-chi, sobit kuching bor bo'lsa magar,
Bizni ne murodda yaratding, falak.
Gar qoida ko'tarsa-yu, izn etsa osmon,
Bo'lar edim azal-abad xizimatingizda.

A.Oripov

Shuningdek, Yaratguvchi nomining nutqiy ifodalanishi funksional asos bilan bog'langanda, uning o'zi tomonidan beriladigan fazilatlar, xos xususiyatlar nazarda tutiladi. Bu tushunchalar uning funksiyasi doirasiga kiradi. Mana shu asosga ko'ra ko'pgina so'zlar Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi. *Madadkor* ana shunday so'zlardan biridir.

Tushubman yo'lungga tanho, o'zungsan menga g'amxorim,
Yiqilganda qo'lim tutgil, madad qilgil, madadkorim.

Mashrab

Mavzudoshlik bo'yicha yana bir leksik-semantik asos egalik tushunchasi bilan bog'lanadi. Xalq ongida shohlar, podshohlar, sultonlar real mulklarning konkret egalari. Shu so'zlarda ifodalanadigan egalik tushunchasi bu so'zlarning teonimik ma'nosi uchun asos ma'no sifatida xizmat qiladi. Ular ma'lum bir hududning, odatda, chegarasi aniq mulkning egalari. Yaratguvchi esa borliq, mavjudlikning egasi hisoblanadi.

Ul shohdin ayoqini o'pmoq tilar ko'ngul,
Bu saltanat mening kibi qulga mahol erur.

Lutfiy

Insonning botiniy dunyosini ifodalovchi lug'aviy birliklar figural ma'noda Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun qo'llanadi. Borliqning egasi bo'lgan Yaratguvchi shu borliqdagi har bir narsa, har bir zarrada mavjuddir. Insonda, uning joni, ruhida ham mavjud. Mana shu asosga ko'ra bu so'zlar teonimik ma'noda qo'llash uchun qulay so'zlardir.

Ey jon, sanga oningdek bir qul yana topilmas,
Zinhor anga nazar qil – quldur sanga chu Bobur.

Insonning eng yaqini Yaratguvchidir, u har doim Uning ishq bilan yashaydi. Yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar asosida teonimik ma'no yaratiladi. Dilga yaqinlik habib so'zi bilan ham ifodalanadi. Shu ma'no asosidagi atash funksiyasi bilan Yaratguvchi nomlanadi.

Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib,
Ayb qilmaki, g'alat gohe tushar qur'on aro.

Navoiy

Yaratguvchi barcha ezguliklar, ulug' va yoqimli fazilatlar egasi, uning sifatleri, shu sifatlardan kelib chiqib ifodalanadigan nomlari ham go'zal. Borliqdagi go'zalliklar majmuidan har bir insonning o'z ongi, tasavvuri doirasida Yaratuvchining abstrakt, ya'ni ideal qiyofasi gavdalanadi. Go'zallik tushunchasini ifodalovchi juda ko'p so'zlar unga – "Husn shohi" (Ogahiy) bo'lgan Yaratguvchiga nisbat beriladi. Bundan tashqari,



nozanim, jonon, dilbar, dildor, dilyoqar, dilsiton, dilrabo kabi so'lar ham Yaratguvchi tushunchasini ifodalab keladi.

Tarahhum qil, ayo dilbar, qulungga ko'p jafo qilma,
O'zungga oshno qilding, g'aribu benavo bo'ldim.

Yod aylar erdim goh-goh, kelgaymu deb ul podshoh,
Bo'ldi yuzum monandi moh, ul dilsitonim keldilar.
Mashrab

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Yaratguvchi inson yuragi, qalbi, dili bilan bog'liq so'zlar orqali ham ifodalanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. – Фарғона, 2021.
2. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент, Фан, 2007. – Б.105-106.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1979.
4. Турсунов У. Мухторов А. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
5. Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент, “Усмон Носир медиа” нашриёти, 2021.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002.
7. Sharafutdinova N. Tangri - umumturkiy teonim. Xorazm Ma'mun akademiyasi. -229-231, 2024-yil.
8. Sharafutdinova N. Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar. FarDU ilmiy xabarlari. -738-740, 2024-yil.